

**“O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatি
ishchi-xodimlari odob-axloqining
QOIDALARI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “O’zmetkombinat” AJ (keyingi o‘rinlarda - Kombinat) ishchi-xodimlari odob-axloqining qoidalari (keyingi o‘rinlarda - Odob-axloq qoidalari) ishchi-xodimlarining kasbiy madaniyati, ish faoliyati davomida hamda ishdan tashqari vaqtida odob-axloqi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubining namunaviy qoidalarini belgilaydi.

Odob-axloq qoidalari kombinat faoliyatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida kombinatga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda kombinat ishchi-xodimlarining axloq qoidalariiga zid bo‘lgan xatti- harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

2. Odob-axlok qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariга rioya etilishini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-oktabrdagi 595-ton qarorining 3-bandiga muvofiq yangi tahrirda ishlab chiqilgan.

3. Kombinat ishchi-xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishi shart:

qonuniylik;

Kombinatga sadoqat va vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to‘lik sifatli bajarish, ijro intizomiga qat’iy rioya etish;

ishchi-xodimlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

davlat, kombinat va uning jamoasi manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo‘lish va qarshi kurashish;

xizmat sirini qat’iy saqlash;

mansab vakolatlarini suiiste’mol qilmaslik;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

o‘z odob-axloqi bilan jamoada, oilada, jamoat joylarida va Jamiyatda o‘rnak bo‘lish.

4. Kombinat ishchi-xodimlari mexnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtida xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariiga amal qilishi lozim:

kombinatning obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti- xarakatlardan tiyilish va yo‘l qo‘ymaslikka, axlok normalariga doimiy rioya qilish;

mas’uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;

murakkab vazifalarni bajarishda xamkasblariga ko‘maklashish;

hushmuomalalik, e’tiborlilik va xushyorlik bilan ishchi-xodimlarda kombinatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg‘otish va rivojlantirish;

oilasida sog‘lom muhitni ta’minlab, oila a’zolariga doimiy gamho‘r bo‘lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

ishchi-xodimlarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qatiy nazar, ular bilan bir xil, samimi, odob va vakolati doirasida munosabatda bo‘lish;

Jamiyatda axloqning umume’tirof etilgan qoidalariiga so‘zsiz amal qilish.

5. Kombinat ishchi-xodimlari o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, “Davlat fuqarolik xizmati tog‘risida”gi O‘zbekiston

Respublikasining qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Odob-axlok qoidalariga va boshqa ichki hujjatlarga amal qiladi.

6. Ishchi-xodimlar Odob-axloq qoidalariga rioya qilish majburiyatiga, kombinat esa ishchi-xodimlari mazkur qoidalarga mos bo'lgan kasbiy madaniyatni talab qilish xuquqiga ega.

7. Kombinat ishchi-xodimlarining Odob-axloq qoidalariga rioya etishi ularning ish faoliyatidagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi holati ularni kelgusida yuqori lavozimlarga tayinlash va rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

2 - bob. Kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalari

8. Kombinat ishchi-xodimlari:

Ishchi-xodimlarning jinsi, irqi, millati, fuqaroligi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavkei kamsitilishiga olib keluvchi ta'sir choralarini va harakatlar (harakatsizlik)ga yo'l qo'yimasligi;

halol,adolatli va kamtar bo'lishi, ishchi-xodimlar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiyl munosabatni namoyish qilishi;

ishchi-xodimlarning xuquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlarni qabul qilishda qonuniylikni,adolatlilikni va shaffoflikni ta'minlashi;

kombinat va Jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi, kombinat tarkibiy bo'linmalarining faoliyati samaradorligini pasaytiradigan harakatlar (harakatsizlik)dan tiyilishi;

o'zining xatti-harakati va axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramaslik choralarini ko'rishi, tanqid uchun ta'qibga yo'l qo'yimasligi, asosli va konstruktiv tanqiddan o'z faoliyatidagi kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraft etish yo'lida foydalanishi;

kombinat tarkibiy bo'linmalari, kombinat ishchi-xodimlari va boshqa shaxslarga o'z xizmat mavkeidan foydalangan holda shaxsiy masalalar yuzasidan ta'sir o'tkazmasligi;

o'z xizmat vakolatlarini ishchi-xodimlarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foya yoki sovg'alar olmasligi;

kombinat mulkining but saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan kombinat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishi, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanishi;

kombinatni transformatsiya qilish va rivojlantirish dasturlariga muvofiq doimiy ravishda o'z faoliyat sifatini oshirib borish choralarini ko'rishi;

qonun bilan intizomiyl, ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan xuquqbazarlik va boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'yimasligi;

kasb etikasi va ishchanlik uslubiga rioya etishi;

siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlari yo'lida xizmat mavqeい va imkoniyatlaridan foydalanmasligi kerak.

9. Kombinat rahbar xodimlari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlardan ular mexnat vazifasini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishga da'vat etishi yoki majburlashiga yo'l kqo'yilmaydi.

3 - bob. Xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari

10. Kombinat ishchi-xodimlari xizmat faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hamda kombinatning ichki hujjatlariga so'zsiz rioya etishi;

mamlakat sha'nini e'zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo'lish; tashqi iqtisodiy va investitsiya sohasida kombinat manfaatlarini qat'iy himoya qilish;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, sohtakorlik va suiste’molchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda oshirish;

yuqori davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdar shaxslarining hamda kombinat rahbariyatining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

ishlab chiqilayotgan normativ-xuquqiy va boshqa xujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

har qanday qonun buzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish;

xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday turdagи sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;

Kombinat ishchi-xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa xuquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o‘zining rahbariga zudlik bilan ma’lum qilish;

chet el fuqarolari bilan alohida belgilangan tartibga zid ravishda bevosita yoki boshqa shaxslar orqali muloqotga kirishmaslik;

o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda ishchi-xodimlar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ularning ta’siridan saqlanish, ishchi-xodimlar huquqlari, majburiyatlarini va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to‘sinqinlik qilishi mumkin bo‘lgan xattiharakatlardan saqlanish;

kombinat siri, qonun va tegishli hujjatlar bilan qo‘riqlanadigan hamda xizmatga oid boshqa ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minalash yuzasidan barcha choralarini ko‘rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik;

axborotlarni tarqatish qoidalariga rioya qilish, Internet jaxon axborot tarmog‘i va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minalashning belgilangan tartiblariga amal qilish;

biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta’minalash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralarini ko‘rish;

ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdar shaxslar, kombinat rahbariyati faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchszilik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan materiallarni joylashtirmaslik;

ishchi-xodimlar va hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushuruvchi ma’lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik;

mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat‘iy rioya etish;

o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish;

jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash choralarini ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslar hamda ishchi-xodimlarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;

mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko‘maklashish;

mehnat jamoasida hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatini obro‘sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

11. Rahbarlar quyidagilarga majbur:

buysunuvidagi kombinat ishchi-xodimlariga professionalizm, halollik, xolislik va adolatlilikda o‘rnak bo‘lish;

jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

kombinat ishchi-xodimlarini qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishlarini talab qilmaslik;

kadrlarni mahalliychilik, urug‘ - aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash, tayinlash yoki tavsiya etishga yo‘l qo‘ymaslik;

jamoada guruhbozlik va favoritizm (ayrim xodimlarni yaqin olish va qo‘llab - quvvatlash) ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning oldini olish;

kombinat ishchi-xodimlarining faoliyatiga baho berishda qonuniy, asosli va adolatli qarorlarni qabul qilish;

kombinat ishchi - xodimlari tomonidan korrupsiya va boshqa suiiste’molchiliklar sodir etilishining oldini olish choralarini ko‘rish;

buysunuvidagi kombinat ishchi-xodimlarini xuquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish choralarini ko‘rish;

vakolati doirasida shartnomalar tuzish, tanlovlardan o‘tkazish yoki rozilik berish masalalariga xolis, adolatli va qonuniy yondashish.

12. Rahbarlar buysunuvidagi kombinat ishchi-xodimlariga qo‘pol muomalada bo‘lishi, haqorat qilishi, shaxsiyatiga tegishi, ularga asossiz tanbeh berishi yoki ayblashi hamda kamsitishi mumkin emas.

4 - bob. Xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari

13. Kombinat ishchi-xodimlari ishdan bo‘s sh vaqtlarida umumqabul qilingan axloq normalariga riyoq qilishlari va ularga zid bo‘lgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari shart.

14. Kombinat ishchi-xodimlari ishdan tashqari vaqtida quyidagilarga majbur:

milliy urf-odat, qadriyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

rasmiy e’lon qilingan ma’lumotlardan tashqari davlat xizmati va kombinat faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilmaslik;

jamoat joylarida (kafe, restoran va boshqa ko‘ngilochar maskanlarda) o‘zini tutish qoidalari riyoq etish, atrofdagilarning e’tiborini tortuvchi ortiqcha va salbiy harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti - harakatlarni sodir etmaslik, mazkur noqonuniy harakatlarga boshqalarni jalb etmaslik yoki da’vat qilmaslik;

xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan idora va tashkilotlar rahbar va xodimlaridan, boshqa mansabdar shaxslaridan qimmatbaxo sovg‘a olmaslik;

xizmat guvoxnomalarini (ID-kartalarini) saqlash va foydalanish tartibiga qat’iy riyoq etish, ulardan xizmatga aloqador bo‘lmagan holatlarda foydalanmaslik, shu jumladan, vakolatli va boshqa shaxslarga xizmat guvoxnomasini (ID-kartasini) ko‘rsatib, mavqeini suiiste’mol qilmaslik;

xizmat avtotransport vositalaridan xizmat faoliyatidan tashqari holatlarda shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanmaslik;

ish faoliyati bilan bog‘lik ma’lumotlarni ishga aloqador bo‘lmagan boshqa shaxslar ishtirokida muhokama qilmaslik;

shaxsiy transport vositalaridan foydalanishda belgilangan tartibga amal qilish, yo‘l harakati qoidalari qat’iy riyoq etish;

o‘zi faoliyat yuritgan kombinat tarkibiy bo‘linmalariga hamda kombinatga dog‘ tushuruvchi xatti-harakatlardan tiyilish;

tashqi ko‘rinishini belgilangan me’yorlar doirasida saqlash, kamtarona kiyinish, atrofdagilarning e’tiborini o‘ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmaslik.

5-bob. Jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalari

15. Kombinat rahbar-xodimlari ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilishi, kombinat tizimdagisi korxonalar faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko‘maklashishi kerak.

16. Kombinat faoliyati to‘grisidagi ommaviy bayonotlar davlat organlari va tashkilotlari rahbari

yoki mazkur yo‘nalish bo‘yicha vakolatli mansabdar shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

17. Quyidagi hollarda ommaviy bayonot berilishi mumkin emas:
ommaviy bayonot matni va mazmuni kombinat faoliyatiga aloqador bo‘lmasa;
ommaviy bayonotda keltiriladigan axborotlar davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lsa;
ommaviy bayonot boshqa davlat organlari va tashkilotlari nufuzini pasaytirish yoki ularning mansabdar shaxslarini kamsitishga yo‘naltirilgan bo‘lsa.

18. Kombinatda jamoatchilik nazoratini ta’minlash maqsadida jamoatchilik tomonidan kombinat tarkibiy bo‘linmalari/rahbarlari faoliyatiga oid ayblov yoki tanqid bildirilgan taqdirda, kombinat tarkibiy bo‘linmalari/rahbarlari unga nisbatan bildirilgan ayblov yoki tanqidga ommaviy izoh yoxud raddiya berishi lozim.

19. Agar ommaviy bayonotda ishchi-xodimlarning sha’ni xamda qadr - qimmatini kamsitadigan iboralar bo‘lsa, kombinat ishchi-xodimi o‘z fikrlarining yanglishligi yoki noto‘g‘riligini tan olishi hamda sha’ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro‘siga daxl qilingan fuqaroden (ishchi-xodimdan), agar qonun hujjatlarida boshqa oqibatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, kechirim so‘rashi shart.

6-bob. Ish faoliyatidagi tashqi ko‘rinish va kiyinish uslubiga oid odob- axloq qoidalari

20. Kombinat ishchi-xodimlarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubi ishchi-xodimlarning kombinat tizimidagi korxonalar faoliyatiga hurmatini, shu jumladan kombinat nufuzini oshirishga xizmat qilishi kerak.

21. Kombinat ishchi-xodimining tashqi ko‘rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, xizmat majburiyatlarini bajarishi vaqtida ishchi-xodimlarning kombinatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofik bo‘lishi va rasmiylik, xolislik, kamtarlik va intizomni namoyon etishi lozim.

22. Kombinat ishchi-xodimlarining ish joyida tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubiga oid qo‘shimcha talablar odob-axloq qoidalari hamda ichki mehnat tartibida belgilanishi mumkin.

7 - bob. Manfaatlar to‘qnashuvi

23. Kombinat ishchi-xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

24. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o‘zining rahbarini darhol xabardor qilishi shart.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘grisida ma’lumotlar olgan rahbar bu to‘qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishga majbur.

8 - bob. Kombinat ishchi-xodimlarining manfaatini himoya qilish

25. Kombinat ishchi-xodimlari vazifalarini bajarish bilan bog‘lik tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga xi洛f boshqa xatti-harakatlardan himoya qilish kombinat tizimidagi mas’ul rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi.

26. Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga to‘sinqilik qilish, jinoyat yoki boshqa xuquqbazarlik sodir etishga og‘dirishga qaratilgan murojaatlar, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida xabar bergan xodimlarni vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va xavf-hatarlardan himoya qilish choralar ko‘riladi.

9-bob. Odob-axloq qoidalariiga rioya etilishini nazorat qilish

27. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariiga rioya etilishi ustidan nazorat xodimlar bilan ishslash xizmati yoki Odob-axloq komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

28. Kombinatda lavozimga tayinlangan kombinat ishchi-xodimlari xodimlar bilan ishlash xizmati yoki kombinat tarkibiy bo‘linmalarining mas’ul xodimlari tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalari bilan tilxat asosida imzo qo‘ydirgan holda tanishtiriladi.

29. Mazkur Odob-axloq qoidalari buzish holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi kombinat rahbariyatining ko‘rsatmasiga muvofik Odob-axloq komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibi kombinat rahbariyati tomonidan belgilanadi.

10 - bob. Odob-axloq qoidalariга rioya etmaganlik uchun javobgarlik

30. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalariга rioya etmaganlik holati ularga nisbatan axloqiy va intizomiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

31. Odob-axloq qoidalariга rioya etmaganlik uchun Odob-axloq komissiyasi tomonidan kombinat ishchi-xodimlariга quyidagi axloqiy ta’sir choralarini qo‘llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so‘rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

kombinatning kollegial yig‘ilishlarida tanbex berish.

32. Odob-axloq komissiyasi kombinat ishchi-xodimiga nisbatan intizomiy ta’sir chorasiни qo‘llash uchun kombinat tarkibiy bo‘linmasi rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi odob-axloq qoidalari kombinat tizimidagi rahbari tomonidan buzilgan taqdirda, ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan takliflarni kombinat rahbariyatiga yuboradi.

33. Kombinat ishchi-xodimining Odob-axloq qoidalariни buzishi ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka to‘rtish uchun asos bo‘ladi.

11 - bob. Yakuniy qoida

34. Kombinat tarkibiy bo‘linmalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqgan holda mazkur Odob-axloq qoidalariга muvofiq o‘z odob-axloq qoidalariни tasdiqlaydi.

“O‘zmetkombinat” AJning
2022 yil «25» oktyabrdagi
1471-son buyrug‘iga ilova

**“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati
Odob-axloq komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi:

1. A. Sharipov Boshqaruv raisining umumiylar bo‘yicha o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

2. R. Gafurov Hujjatlar tahlili va ijrosini ta’minlash, murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i

Komissiya a‘zolari:

3. I. Qadirov “O‘zmetkombinat” AJ kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi
4. A. Mirzayev Boshqaruv raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchilari kengashi raisi
5. N. Ataxanova Boshqaruv raisining ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tilida qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha maslahatchisi
6. T. Xojiyev Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori
7. N. Pleskachevskaya Xodimlarni boshqarish departamenti direktori

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tganida ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoki tegishli vazifalarni bajarish topshirilgan shaxslar kiritiladi.

O‘zmetkombinat” AJning
2022 yil «25» oktyabrdagi
1471-sen buyrug‘iga
1-ilova

Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida NIZOM

1 - bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom kombinatda Odob-axloq komissiyalari (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga riousha etilishini nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olish va odob-axloq qoidalariga riousha etish bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish maqsadida tuziladi.

3. Komissiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga, kombinat ishchi-xodimlari odob-axloqining qoidalariga, ushbu Nizomga va “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining boshqa ichki hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya Komissiya raisi, kotibi va a’zolaridan iborat bo‘lib, umumiy soni besh nafardan kam bo‘imasligi va toq sonda bo‘lishi lozim.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro‘- e’tiborga sazovor bo‘lgan kombinat ishchi-xodimlari kiritiladi.

Komissiya tarkibi kombinat rahbarining qarori bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashushi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.

2 - bob. Komissyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Komissyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

kombinat ishchi-xodimlarining idoraviy odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;

kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga riousha etilishi masalalarini ko‘rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

kombinat ishchi-xodimlarining bir - birlarining xatti-harakatlarning doir murojaatlarini ko‘rib chiqish;

kombinat ishchi-xodimlarining sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

kombinat ishchi-xodimlarining odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga riousha etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida kombinat rahbariyati va jamoatchilikni xabardor qilib borish.

6. Komissiya o‘z vakolatlari doirasida:

kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga riousha etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalaringin buzilishi bilan bog'lik masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

kombinat ishchi-xodimlarining odob-axloq qoidalari bilan bog'lik masalalarini ko'rib chiqish jarayonida zarur axborotni so'rab oladi;

ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni xal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalg qiladi;

odob-axloq qoidalariiga oid masalalar yuzasidan kombinat ishchi-xodimlariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi;

zarur hollarda, Komissiyada ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha kombinat ishchi-xodimini intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan kombinat rahbariyatiga taklif kiritadi.

7. Komissiya kombinat tizimidagi tarkibiy bo'linmalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

8. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalaringin buzilishi bilan bog'lik masalalarni ko'rib chiqish ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

3 - bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o'tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o'tkaziladi. Zarur bo'lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

10. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo'qligida esa, uning topshirig'iga binoan Komissiya a'zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnomma yuritiladi, u raislik qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

11. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi xozir bo'lsa, vakolatlari hisoblanadi.

12. Komissiyaning navbatdagi majlisi tog'risida uning raisi Komissiya a'zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek, majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

13. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

14. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

kombinatning tarkibiy bo'linmalarini va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlarda Komissiya nomidan ish yuritadi;

Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi;

har yili kombinat rahbariga Komissiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

15. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, kombinat xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomanining

manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta’minlaydi.

16. Komissiya a’zosi:

Komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladigan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko‘rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko‘rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma’lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

Komissiya qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda o‘z nuqtai nazarini bayon etishga haqli.

17. Komissiyasi a’zosi Komissiya majlisida hozir bo‘lishi va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a’zosi Komissiya majlisida xozir bo‘lish imkonni bo‘lmaganda Komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

18. Komissiya majlisida ko‘rilayotgan masalalar Komissiya raisi, kotibi va a’zolariga bevosita yoki bilvosita bog‘lik bo‘lgan taqdirda o‘zini o‘zi rad qilishi shart.

4 - bob. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarini ko‘rish

19. Komissiya kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati bilan birgalikda muntazam ravishda kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariга rioxha etilishi va ularning buzilishining oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

kombinat ishchi-xodimlarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

kombinat ishchi-xodimlarini “halollik vaksinasi” bilan emlash, ya’ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma’rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini “immunitetini” shakllantirish;

kombinatda taniqli ziyorilar, ijodkorlar, ma’naviyat va ma’rifat sohasining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari, o‘z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

kombinatda xodimlarning kasbiy va boshqaruv ko‘nikmalari o‘sishini, shuningdek ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariга rioxha etishlarini ta’minalash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta’minalash;

kombinat ishchi-xodimlarining iqtisodiy bilimlarini, xuquqiy savodxonligini, xuquqiy madaniyati va xuquqiy ongini, intellektual va ma’naviy rivojlanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va xuquqiy o‘qishlar tashkil etish;

yangi ishga qabul qilingan kombinat ishchi-xodimlarini odob-axloq qoidalariга qat’iy rioxha qilish borasida stajirovkadan o‘tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlarni tashkil qilish;

kombinat ishchi-xodimlarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiylar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o‘z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

20. Komissiya kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o‘z faoliyatini Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejaliari asosida olib boradi.

21. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari Komissiya tomonidan kombinatning tegishli tarkibiy bo‘limlari rahbarlari hamda kasaba uyushmalari qo‘mitalari bilan birgalikda tashkil etiladi.

22. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligi yil yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan Komissiya yig'ilishida muhokama qilinadi.

5-bob. Kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalaring buzilishi bilan bog'lik masalalarni ko'rib chiqish tartibi

23. Komissiya kombinat ishchi-xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalaring buzilishlari bilan bog'lik masalalarni:

kombinat rahbarining topshirig'iga ko'ra;
xuquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan;
davlat xizmatchilarning, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan;
o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqadi.

24. Komissiya majlisiga, xaqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilayotgan kombinat ishchi-xodimi, zarur bo'lgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi. Komissiya majlisining vaqt va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

25. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala o'qib eshittiriladi;

kombinat rahbarining topshirig'i yoki kombinat ishchi-xodimi tomonidan odob- axloq qoidalari buzilganligi to'g'risidagi murojaat o'qib eshittiriladi;

odob-axloq qoidalariaga rivoja etmaganlikda ayblanayotgan kombinat ishchi-xodimi tushuntirishlari eshitiladi.

26. Kombinat ishchi-xodimi o'zining xuquqi, sha'ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro'siga daxl qiladigan murojaat bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga xaqli.

27. Majlis yakuni bo'yicha Komissiya kombinat ishchi-xodimining harakatlarida odob-axloq qoidalaring buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

28. Odob-axloq qoidalari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan kombinat ishchi-xodimlariga quyidagi axloqiy ta'sir choralar qo'llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

kombinatning kollegial yig'ilishlarida tanbeh berish.

29. Komissiya kombinat ishchi-xodimiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasi qo'llash uchun kombinat rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

30. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

komissiyada oldin ko'rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;
anonim murojaatlar;

qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'limgan murojaatlar.

31. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan kombinat ishchi-xodimiga va kombinat rahbariga yozma ravishda ma'lum qiladi.

32. Komissiya odob-axloq qoidalari kombinat rahbariyati tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko'rish masalasi yuzasidan takliflarni yuqori turuvchi kombinat rahbariga yuboradi.

33. Komissiyaning qarori ustidan kombinat rahbariga yoki qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

34. Kombinat ishchi-xodimi tomonidan odob-axloq qoidalaring buzilishi haqidagi murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

35. Taraflar yarashgan, shuningdek kombinat ishchi-xodim o'z xoxishi bilan murojaatchidan oshkora uzr so'ragan hollarda, unga nisbatan ta'sir choralar qo'llanilmasligi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi
to‘g‘risidagi Nizomga
ilova

**Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil qilish va davlat xizmatchilari
tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘lik masalalarni ko‘rib
chiqish**
SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
I. Komissiya faoliyatini tashkil etish			
1- bosqich	“O‘zmetkombinat” AJ	<p>1. “O‘zmetkombinat” AJ Odob – axloq komissiyalari (keying o‘rinlarda – komissiya) komissiya raisi, kotibi va a‘zolari iborat tarkibida, umumiy soni besh nafardan kam bo‘lgan miqdorda toq sonda shakllantirish.</p> <p>2. Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro‘ - etiborga sazovor bo‘lgan kombinat xodimlarini kiritish.</p> <p>3. Komissiya tarkibini tasdiqlash.</p> <p>4. Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.</p>	Ikki hafta muddatda
	Komissiya raisi	<p>Komissiya ishini tashkil qiladi, komissiya majlislarini chaqiradi va o‘tkazadi majlisga raislik qiladi.</p> <p>Komissiya nomidan ish yuritadi, komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to‘g‘risidagi axborot bilan so‘zga chiqadi.</p> <p>Kombinat rahbariga Komissiya faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.</p>	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Komissiya raisi	<p>Kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi. Komissiyaning a‘zolarini va taklif etilgan shaxslarni joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi.</p> <p>Komissiyaning faoliyatini tashkiliy – texnik jihatdan ta‘minlash masalalarini hal qiladi, navbatdagi majlisga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida taylorlanishini ta‘minlaydi.</p> <p>Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta‘minlaydi.</p>	<p>Ma‘lumotlar kiritilgan vaqtidan boshlab</p> <p>Har yili yil yakuni bo‘yicha</p>
	Komissiya raisi	<p>Kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi. Komissiyaning a‘zolarini va taklif etilgan shaxslarni joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi.</p> <p>Komissiyaning faoliyatini tashkiliy – texnik jihatdan ta‘minlash masalalarini hal qiladi, navbatdagi majlisga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida taylorlanishini ta‘minlaydi.</p> <p>Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta‘minlaydi.</p>	<p>Majlisdan kamida ikki kun oldin</p> <p>Majlisdan keyin bir kun muddatda</p>
II. Odob axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarini ko‘rish			
1 – bosqich	Komissiya	Komissiya muntazam ravishda kombinat ishchi xodimlari tomonidan odob axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishining oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora – tadbirlarni	Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalarini asosida

	Kombinat tarkibiy bo‘linmalari	<p>amalga oshiradi.</p> <p>Kombinat ishchi xodimlariida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;</p> <p>Kombinat ishchi xodimlari halollik vaksinasi bilan emlash, ya’ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma’rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish;</p> <p>Kombinat tarkibiy bo‘linmalarida taniqli ziyolilar, ijodkorlar, ma’naviyat va ma’rifat sohasi, shunigdek diniy sohaning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari, o‘z sohasida yuksak natijaga erishgan mehnat faxriyalarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;</p> <p>Kombinat tarkibiy bo‘linmalarida xodimlarning kasbiy va boshqaruva ko‘nikmalari o‘sishini, shuningdek ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob – axloq qoidalariga rioya etilishlarini ta’minalash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy oshirish ishlarini ta’minalash;</p> <p>Kombinat ishchi xodimlarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, inteketual va ma’naviy rivojlanishini ta’minalash maqsadida iqtisodiy va huquqiy o‘qishlar tashkil etish;</p> <p>Yangi ishga qabul qilingan davlat xizmatchilarini odob – axloq qoidalariga qat‘iy rioya qilish borasida stajirovkadan o’tkazish va ular bilan profilaktik suhabatlar o’tkazish;</p> <p>Kombinat ishchi xodimlarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiylar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o‘z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart sharoit yaratib berish.</p>	
2 – bosqich	Komissiya	Kombinat ishchi xodimlari tomonidan odob – axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligini Komissiay yig‘ilishida muhokama qiladi.	Har yili yakunlari bo‘yicha
III. Odob axloq qoidalaring buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish			
1 – bosqich	Komissiya	<p>Komissiya kombinat ishchi xodimlarining odob – axloq qoidalari buzilishi bilan bog‘liq masalalarni:</p> <p>Kombinat rahbarining topshirig‘iga ko‘ra;</p> <p>Huquqni muhofaza qiluvchi organlar murojaatiga asosan;</p> <p>Kombinat ishchi xodimlarining, shunigdek jismoniy va yuridik</p>	Zaruratga ko‘ra

		shaxslarning murojaatiga binoan; o‘z tashabbusi bilan ko‘rib chiqadi	
2 – bosqich	Komissiya	Komissiya majlisida: Kun tartibidagi masala o‘qib eshittiriladi; Kombinat rahbarining topshirig‘i yoki davlat xizmatchisi tomonidan odob – axloq qoidalari buzilganligi to‘g‘risidagi murojaat o‘qib eshittiriladi; Odob axloq qoidalariга rioxat etmaganlikda ayblanayotgan kombinat ishchi xodimi va murojaatchilar tushuntirishlari eshittiriladi.	Zaruratga ko‘ra
		O‘zining huquqi, sha’ni va qadr – qimmatiga, ishchalik obro‘siga daxl qiladigan murojaat bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘zini himoya qilishga, komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.	Zaruratga ko‘ra
3 – bosqich	Komissiya	1. Majlis yakuni bo‘yicha kombinat ishchi – xodiminig harakatlarida odob – axloq qoidalaring buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 2. Odob axloq qoidalari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda kombinat ishchi xodimlariga quyidagi axloqiy ta’sir chorakari qo‘llaydi. Ogohlantirish; Uzr so‘rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish; Kombinat tarkibiy bo‘linmasining kengaytirilgan majlisida tanbeh berish. 3. Kombinat ishchi xodimiga nisbatan intizomiy ta’sir chorasi ni qo‘llash uchun kombinat rahbariga taqdimnomma kiritish mumkin. 4. Qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilgan kombinat ishchi xodimiga va kombinat rahbariga yozma ravishda ma‘lum qiladi.	Zaruratga ko‘ra
4 – bosqich	Komissiya	Odob axloq qoidalari kombinat rahbari tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan takliflarni yuqori turuvchi kombinat rahbariyatiga yuboradi.	Zaruratga ko‘ra
5 – bosqich	Koimbinat ishchi xodimi	Komissiyaning qarori ustidan kombinat rahbariga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.	Zaruratga ko‘ra

